

**ТУРОН ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ ТАСАРРУФИДАГИ  
ПСИХОЛОГИЯ ВА ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ  
ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ**



**“ЁШЛАРНИ МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ВА  
ЖИСМОНИЙ БАРКАМОЛ ЭТИБ  
ТАРБИЯЛАШ ВА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ  
ЖАРАЁНЛАРИНИ  
ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ  
СТРАТЕГИК МОДЕЛЛАРИ“**

**РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
КОНФЕРЕНЦИЯСИ МАТЕРИАЛЛАРИ  
ТЎПЛАМИ**

**2022-йил 17-декабрь**

**ТОШКЕНТ**

**ТУРОН ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ ТАСАРРУФИДАГИ  
ПСИХОЛОГИЯ ВА ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ  
ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ**



**“ЁШЛАРНИ МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ВА  
ЖИСМОНИЙ БАРКАМОЛ ЭТИБ ТАРБИЯЛАШ  
ВА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ЖАРАЁНЛАРИНИ  
ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ СТРАТЕГИК  
МОДЕЛЛАРИ”**

**РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯСИ  
МАТЕРИАЛЛАРИ ТЎПЛАМИ**

**2022-йил 17-декабрь**

**ТУРОН Ф.А., 2023  
ТОШКЕНТ - 2023**

Турон фанлар академияси тасарруфидаги Психология ва педагогика фанлари илмий-тадқиқот институтининг очилиши муносабати билан ўтказилган **“ЁШЛАРНИ МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ВА ЖИСМОНИЙ БАРКАМОЛ ЭТИБ ТАРБИЯЛАШ ВА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ЖАРАЁНЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ СТРАТЕГИК МОДЕЛЛАРИ”** мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами // тузувчи ва нашрга тайёрловчи **Гулчехра Қурбонова** – Т.: 2023. 350 б.

### **Масъул муҳаррир:**

**Ҳайдарбек Назирбекович Бобобеков**, Лейбниц номидаги Европа Табиий фанлар академияси (Германия) академиги, Турон ФА академиги, “Нури Хўжанд” номли Марказий Осиё халқ академияси (Тожикистон) академиги, ХТЁУ аъзоси, тарих фанлари доктори, профессор, Турон Фанлар академияси **Президенти**.

### **Илмий муҳаррир:**

**Гулчехра Абдуллаевна Қурбонова**, Турон Фанлар академияси академиги, профессори, Психология ва педагогика фанлари илмий-тадқиқот институти **директори**, Афинанинг Аристотель номидаги Фалсафа академиясининг жаҳон фалсафа форуми Президиумининг қарорига асосан **психология фанлари доктори**.

### **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ АЪЗОЛАРИ:**

Ҳайдарбек Бобобеков	–	Турон фанлар академияси Президенти
Ҳожиакбар Ҳамидов	–	Турон ФА академиги, 1-вице-президенти
Гулчехра Қурбонова	–	Турон ФА академиги, Психология ва педагогика фанлари илмий-тадқиқот институти директори
Рахмонали Ҳасанов	–	Турон ФА академиги, профессор Махпират номидаги Ўрта Осиё халқлари тарихи институти Тошкент филиали директори
Мақсуд Холмухаммедов	–	Турон ФА академиги, «Фан ва технологиялар нашриёт матбаа уйи» директори
Умида Гафорова	–	Турон ФА академиги, ПФИТИ Кенгаш аъзоси, психология ф.д., профессор (Тожикистон)
Ойбек Ҳайитов	–	Турон ФА академиги, ППФИТИ Кенгаш аъзоси, психология фанлари доктори, профессор
Шоира Шодмонова	–	Турон ФА ППФИТИ Кенгаш аъзоси, педагогика фанлари доктори, профессор
Раушана Медитова	–	Турон ФА академиги, ППФИТИ Кенгаш аъзоси, педагогика фанлари доктори, профессор
Раънажон Абдуллаева	–	Турон ФА Фахрий академиги, ППФИТИ Кенгаш аъзоси, котиби, психология фанлари номзоди, доцент
Маъруфжон Ахмедов	–	Турон ФА ППФИТИ Кенгаш аъзоси, педагогика фанлари номзоди, доцент, ЎзДК Магистратура бўлими бошлиғи
Моҳира Жўракулова	–	Турон ФА Фахрий доценти, ППФИТИ Кенгаш аъзоси
Нилуфар Зарипова	–	Турон ФА Фахрий академиги, ППФИТИ Кенгаш аъзоси, институт ташкилий ишлар бўйича директор ўринбосари

### **КОНФЕРЕНЦИЯ ТАШКИЛИЙ ҚЎМИТАСИ:**

#### **Раис:**

Гулчехра Қурбонова – Турон Фанлар академияси академиги, профессори, Психология ва педагогика фанлари илмий-тадқиқот институти директори, Афинанинг Аристотель номидаги фалсафа академиясининг жаҳон фалсафа форуми Президиумининг қарорига асосан психология фанлари доктори.

mohiyatini to'la-to'kis tushunadi, shuningdek, asar unga ijobiy ta'sir qiladi, ichki hissiyot va kechinmalarni hosil qiladi.

Bolalarni milliy musiqamizni tinglashga tayyorlash uchun hozirgi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarida qanday ishlar olib borilayapdi? Yuqorida aytilgan musiqa tinglash uchun kerak bo'ladigan shartlarni bajarish musiqa rahbari oldiga katta vazifalarni qo'yadi. Musiqa rahbari musiqiy asarni yeshittirishdan oldin, bolalar bilan shu mavzuda qisqacha suhbat o'tkazadi va suhbatda asarning mazmuni va xarakteri, asar mualliflari haqida bolalarga so'zlab beradi. E.Gorskayaning fikriga ko'ra, musiqa tinglashdan avval o'tkazilgan suhbat o'quvchilarni psixik jihatdan asarni idrok etishga tayyorlaydi. Asarning janri, yaratilish tarixi, ijodkorlari, asardagi g'oya haqida o'tkazilgan suhbat o'quvchilarni shu asarni tinglashga zamin yaratadi.

Kuyini tinglash jarayonida uni yaratilgan davr haqida, kompozitorning hayot va ijodi haqida, qo'shiq yoki kuy bilan bog'liq tarixiy voqealar haqida o'tkazilgan suhbat musiqani idrok etishda o'ta muhim jarayon hisoblanadi.

E.Gorskaya shu fikrlarni bayon etar ekan, bir qator har xil mavzudagi qo'shiq va kuylarni keltiradi. Shuningdek, u har bir kuy va qo'shiqni ijro etishdan – tinglashga berishdan avval beriladigan kirish suhbatlaridan namunalar keltiradi. O'quvchilarga har bir musiqiy asar zamirida ma'lum voqelik, his-tuyg'u va fikrlar yotishi haqida ularning hayotiy tajribalariga tayangan holda tushuncha berib borish lozim.

Xulosa qilib aytganda, musiqiy tarbiyani amalga oshirishda bolalarni nafaqat musiqiy asarni ijro etishga, balki musiqani emotsional va ruhan idrok etishni o'rgatish kerak. Asosan, bolalar musiqani qo'shiq kuylash jarayonida eshitadilar. Qoidaga ko'ra, musiqa rahbari qo'shiq o'rgatishdan avval, bolalarga uni o'zi ijro etib beradi. Bolalarning musiqani eshitish va idrok etishlari uchun bu juda kamlik qiladi. Buning uchun avvalo musiqa rahbari bolalarni o'zlari kuylaydigan qo'shiqlaridan murakkabroq kuy va qo'shiqlarni tinglashga o'rgatishi kerak. Shuning uchun ham musiqa rahbarining o'zi yuqori darajada musiqani ijro eta olishi va qo'shiq kuylay olishi talab etiladi. Afsuski, hozirgi paytda hamma musiqa rahbarilar ham bunday imkoniyatga ega emaslar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qurbonova G.A. Psixologiya. O'quv qo'llanma. T., "Musiqqa" nashriyoti. 2016.
2. Восприятие музыки. / Ред-сост. В.А. Максимов. М., 1980.
3. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. М., 1967.
4. Вызго Т.С. Развитие музыкального искусства Узбекистана и его связи с русской музыкой. М., 1970.
5. Асафьев Б.В. Избранные статьи о музыкальном просвещении и образовании. 2-е изд. М., 1973.

### **БОЛАЛАРДАГИ ДЕВИАТИВ ХУЛҚ-АТВОР ПСИХОКОРРЕКЦИЯСИ**

*Турдиева Моҳира Жўрақуловна,  
Бухоро давлат университети,  
Мактабгача таълим кафедраси ўқитувчиси,  
Турон Фанлар академияси Фахрий доценти,  
tohira.turdiyeva@bk.ru  
Исломова Маҳшиё Исроил қизи,  
БухДУ, 14-3МТ-20 гуруҳ талабаси*

*Аннотация:* Олимларнинг кўплаб илмий изланишларида болалар ва ўсмирлар хулқ-атворидаги девиатив ўзгаришларнинг турли-туман кўринишлари баён этилиб, девиациянинг таснифи ҳамда хулқ-атвор шакллари ва реакцияларининг шаклланишида

оилавий тарбиянинг роли муҳимлиги қайд этилган бўлиб, мақолада ҳам ушбу ҳолат илмий асослаб берилган.

**Калим сўзлар:** девиация, девиант, мезон, психокоррекция, когнитив-ҳаракатли, назарий, хулқ-атвор, хусусият, дифференциациялаш, типология, диагностикалаш методикаси.

**Аннотация:** Во многих научных исследованиях ученых описываются различные проявления девиантных изменений в поведении детей и подростков, отмечается важность роли семейного воспитания в классификации девиантности и формировании моделей поведения и реакций, и это положение также научно обосновано в статье.

**Ключевые слова:** девиация, девиантность, психокоррекция, когнитивно-поведенческая, теоретическая, поведенческая, черта, дифференциация, типология, методология диагностики.

**Abstract:** In many scientific studies of scientists, various manifestations of deviant changes in the behavior of children and adolescents are described, the importance of the role of family education in the classification of deviance and the formation of patterns of behavior and reactions is noted, and this provision is also scientifically substantiated in the article.

**Key words:** deviation, deviance, psycho-correction, cognitive-behavioural, theoretical, behavioral, trait, differentiation, typology, diagnostic methodology.

Ижтимоий жамият ўзига ҳос умумий қонуниятларга, инсон фаолияти билан бўлган меъёрий тартиботларга, ҳаётий қонунларга, турмуш тамойилларига мувофиқ ривожланади, тараққий этади, жамиятда ўрнатилган ижтимоий меъёрларга қатъий риоя қилади, амал қилади. Аммо бу ижтимоий меъёрлардан ҳам четга чиқиш, қонунларга бўйсунмаслик, ҳуқуқларни бузиш ҳоллари ҳам жамиятда учраб туради.

Ана шу ижтимоий меъёрлардан четга чиқишлик, яъни бу ижтимоий меъёрларни бузиш, риоя қилмаслик жиноятга қўл уриб, шу йўлдан боришлик ҳолатлари фанда **девиация** – деб аталади.

Бугунги илм-фанда инсон ҳаётида юзага келадиган муаммоларнинг шаклланиш қонуниятларини психологик таҳлил қилиш, унга нисбатан зарур психологик чоратадбирларни белгилаш, оқилона ечим топиш ва натижаларни тўғри баҳолаш ҳамда илмий асосда қарорлар қабул қилиш муаммоларини ўрганишга йўналтирилган тадқиқотларга алоҳида аҳамият берилмоқда.

Шунингдек, болалар хулқ-атворидаги салбий ўзгаришларни бартараф қилишга йўналтирилган психокоррекцион тренингнинг муҳим жиҳатларини изоҳловчи назарий ва методологик ёндашувларнинг ижтимоий-психологик омилларини аниқлашга қаратилган тадқиқотлар алоҳида ўрин тутди.

Болалардаги девиатив хулқ-атвор муаммоси педагог, психолог ҳамда бошқа мутахассислар томонидан муваффақиятли ўрганилиб келинмоқда. Турли психологларнинг илмий изланишларида болалардаги девиатив хулқ-атворнинг турли-туман шакллари баён этилиб, девиациянинг хилма-хил таснифлари баён этилган ҳамда хулқ-атвор шакллари ва реакцияларининг намоён бўлишида оилавий тарбиянинг роли муҳимлиги қайд этилган ўтилган.

Болалик давридаги психопатологиялар соҳаси бўйича кўпчилик мутахассислар томонидан шахс хулқ-атворидаги турли хил девиатив ҳаракатларнинг шаклланишининг мураккаб механизми инобатга олиниши лозимлиги таъкидлаб ўтилган.

Бу ўринда хулқ-атворда бузилишлар юзага келиши ва ривожланиши сабабларини изоҳловчи турли назарий ва методологик ёндашув ҳамда концепциялардан фойдаланиб, унда хулқ-атворнинг ҳам биологик, ҳам ижтимоий-психологик детерминантларига катта эътибор қаратилган ва хулқ-атвордаги бузилишлар тизимини шакллантирувчи омилларни аниқлаш зарурлиги қайд этиб ўтилган.

Психологик коррекция – ривожланишида муаммолар бўлган болалар ва ўсмирларга психологик ёрдам кўрсатиш тизимидаги марказий бўғинлардан ҳисобланади.

Психологик ёрдам муаммоларига бағишланган илмий адабиётлар таҳлили психологик коррекция ва психотерапия тушунчаларини бир-биридан ажратиб кўриш масаласида ҳамфикрлик мавжуд эмаслигини кўрсатди.

Кўплаб муаллифлар, психокоррекция ва психотерапия, психологик таъсир кўрсатишнинг воситаларидан бири сифатида кўрилиши туфайли уларнинг бир-биридан фарқланиши сунъий тарзда ҳосил килинган, деб ҳисобланади. Психотерапия атамаси халқаро атама бўлиб, дунёнинг кўпгина мамлакатларида мутахассис-психолог томонидан амалга ошириладиган иш услубларига нисбатан қўлланилади.

Бу борадаги тадқиқотчилар фикрларидаги зиддият асосан психокоррекция ва психотерапиянинг қўлланилиш соҳаси билан боғлиқдир. Психотерапия асосан психосоматик касалликларда, невроз клиникасида қўлланилса, психокоррекция эса психиатрик клиникада қўлланилади.

Бошқа муаллифлар эса психокоррекция ҳам, даволовчи психотерапевтик вазифаларни ҳал этиш ҳам, гигиена ва профилактика мақсадида қайд этиб ўтишади. Г.Л. Исуринанинг кўрсатишича, у ёки бу касалликнинг келиб чиқишида психологик омил қанчалик катта аҳамиятга эга бўлса, психокоррекция методлари шунчалик даволовчи психотерапевтик вазифаларни бажариб, бошқача айтганда психотерапия методлари сифатида намоён бўлади. Муаллиф, психологик коррекцияни шахснинг тўлақонли ҳаёт кечириши ва ривожланишини таъминлаш мақсадида у ёки бу психологик тузилмаларга йуналтирилган психологик таъсир сифатида кўрсатади.

Хулқ-атворида бузилишлар бўлган болалар ва ўсмирларнинг ота-оналари, соғлом болалар ва ўсмирларнинг ота-оналаридан фарқли равишда, ўз фарзандлари тўғрисида нотўғри тасаввурга эга бўлишиб, бу ҳолат ота-оналар фарзандларининг салбий эмоционал-иродавий характеристикалари, эмоционал-иродавий назоратнинг заифлиги, аччиқланувчанлиги, хавотирланувчанлигига урғу беришлари, болаларининг ижтимоий муҳитда низолилиги даражасини сунъий тарзда пасайтириб, уларнинг мулоқотчанлиги ва конформлигини бўрттириб кўрсатишлари сабабли содир бўлади.

Хулоса қилиб айтганда, инсон тарбиясида, ижтимоий меъёрлари талабида тарбиялашда энг муҳим, энг биринчи ижтимоий назорат институти бу оила, фақат никоҳли оиладир. Чунки фарзанд тарбияси бешиқдан бошлаб, баркамол комил инсон бўлиб шаклланишида никоҳли соғлом оила муҳитининг ўрни бениҳоя каттадир.

Ҳар бир фарзанд инсон бўлиб, шахсга айланишининг дастлабки манбаи ота-онага, оилага боғлиқдир. Чунки инсондаги хулқ-атвор, ахлоқ-одобнинг дастлабки нормалари оилада шаклланиб, мактабгача таълим ташкилоти, мактаб, маҳаллада, жамоатчилик ўртасида таълим-тарбия тизими фаолияти жараёнида такомиллашади, атроф-муҳит қиёфага солади, инсоний фазилатлари шаклланиб такомиллашиб комил инсонийлик даражаси кўтарилади.

#### Адабиётлар:

1. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T.: O'qituvchi. 1993
2. J. Xasanboyev. Pedagogika. T., "Fan", 2006
3. Sh. Sodiqova. Maktabgacha pedagogika. T.: O'qituvchi 2016y.
4. Xasanboyeva O.U. va bosh. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. 2006
5. Turdiyeva M. J. Content of development of creative skills of preschool children based on individual and innovative approach //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2022. – T. 2. – №. 1.5 Pedagogikal sciences.
6. Jurakulovna, Turdieva Mokhira, et al. "organization of the process of preschool education and upbringing based on a student centereapproach." *Internationaljournalofearlychildhood* 14.03: 2022.

<b>Сирожидинов Ч.С.</b>	
Ёшларни маънавий-ахлоқий тарбиялашнинг ижтимоий тенденциялари.....	269
<b>Sindarov R.U.</b>	
Metodik o'yinlarning grammatikani shakllantirishdagi o'rni.....	272
<b>To'rajonov Muradjon Dilmurod o'g'li</b>	
Bolalar musiqiy faoliyatida musiqa idrokning ijobiy ta'siri xususiyatlari.....	274
<b>Турдиева М.Ж., Исломова М.И.</b>	
Болалардаги девиатив хулқ-атвор психокоррекцияси.....	276
<b>Турдиева М.Ж., Давронова Г.М.</b>	
Шахсга йўналтирилган таълим технологияси асосида таълим жараёнини ташкил этиш.....	279
<b>Турдиева М.Ж., Шаропова Р.Р.</b>	
Мактабгача таълим ташкилоти ва оила ҳамкорлиги.....	281
<b>Tirkasheva S.O.</b>	
Ijodiy o'yinlarning maktabgacha yoshdagi bolalar taraqqiyotida tutgan o'rni.....	283
<b>Тоиров А.З.</b>	
Умумий Ўрта таълим мактабларида фаолият кўрсатувчи педагогларнинг ўсмирларда миллий ғурурни шакллантириш маҳоратларини такомиллаштириш.....	285
<b>Тўйичиева Г.М.</b>	
Мустақил таълимга ёрдам берувчи фаолиятни шакллантиришнинг шарт-шароитлари.....	289
<b>Турғунбоева Дилором</b>	
Ўз-ўзига нисбатан баҳони ривожлантиришнинг психокоррекцияси.....	291
<b>Adpi Tolipova A.B.</b>	
Oilada bolalarning estetik tasavvurlarini shakllantirishning o'ziga xos jihatlarini.....	292
<b>Химматалиев Д.О., Муминова М.Ю.</b>	
Мактабгача таълим ташкилоти бошқарувида инновацион ёндашув асосида раҳбарнинг бошқарув компетентлигини ошириш йўллари.....	294
<b>Xalmatov U.</b>	
Bo'lajak pedagoglarda boshqaruv madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish omillari..	297
<b>Холмуминова Дилшода Тошпўлатовна</b>	
Ўқитувчилар жамоасида ижодий муҳитни шакллантиришда раҳбар одоб масаласи .....	300
<b>Shodmonova D.Sh.</b>	
Sharq mutafakkirlarining o'quvchi-yoshlarni sog'lom turmush madaniyatini shakllantirishga oid qarashlaridan.....	300
<b>Шукурова Гулбахор Муродовна.</b>	
Ота-она ва фарзанд ўртасидаги мулоқот психологияси.....	305
<b>Эрназарова Г. О.</b>	
Талабаларнинг касбий-педагогик компетенциясини шакллантиришни аҳамияти..	308
<b>Юнусова Б.С.</b>	
Асариои ирфон ва андешаҳои ахлоқии аттори нишопури.....	310
<b>Yusuvalieva A.Ya.</b>	
Mavzu: ijtimoiy institutlarning bola ijtimoiylashuvdagi o'rni.....	314
<b>Қодиров Ф.</b>	
Ёшларни маънавий-ахлоқий тарбиялашда гиёҳвандликка қарши курашиш.....	316
<b>Қайнарова И.В.</b>	
Педагогик ҳамкорлик инновацион тизимини ташкил этиш.....	319
<b>Курбанова М.Э.</b>	
Малакали педагог кадрлар таёрлаш тизимини янада такомиллаштириш.....	321
<b>Қодиров Умарали Дўстқобилович</b>	
Бағрикенглик (толерантлик)ни шакллантиришда санъатнинг ўрни.....	323